



JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIK – TASHQI IQTISODIY ALOQALARNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHI

MEMBERSHIP IN THE WORLD TRADE ORGANIZATION AS A STRATEGIC DIRECTION FOR THE DEVELOPMENT OF FOREIGN ECONOMIC RELATIONS

¹*Ataniyazov Jasurbek Xamidovich*

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Xalqaro moliya" kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, tashqi savdo aloqalarini faollashtirishda imtiyozli savdo rejimlaridan samarali foydalanishning asosiy jihatlari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, Jahon savdo tashkiloti (JST) faoliyatining mohiyati, tashqi savdoni rivojlantirishdagi o'рни va ahamiyati tahlil qilingan. JSTning asosiy tamoyillari, qoidalari hamda muhim funksiyalari keng yoritib berilgan. Bundan tashqari, JSTga a'zolikka kirishning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati va afzalliklari, shuningdek, a'zolikning asosiy shart-sharoitlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. JSTga a'zolikning tashqi savdo munosabatlariga ta'siri masalasi Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi tajribalari misolida qiyosiy tahlil qilingan. Shu bilan birga, O'zbekistonning JSTga a'zolikka kirish jarayonida amalga oshirayotgan chora-tadbirlari hamda mazkur tashkilotga a'zo bo'lish orqali mamlakat tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishda ochiladigan yangi imkoniyatlar bayon etilgan.

Eng. - The article comprehensively discusses measures aimed at developing foreign economic activity in our country, the main aspects of the effective use of preferential trade regimes in activating foreign trade relations. It also analyzes the essence of the activities of the World Trade Organization (WTO), its role and importance in the development of foreign trade. The main principles, rules and important functions of the WTO are widely covered. In addition, the importance and advantages of WTO membership for the country's economy, as well as the main conditions of membership, are scientifically studied. The issue of the impact of WTO membership on foreign trade relations is analyzed comparatively using the experience of the People's Republic of China and the Russian Federation. At the same time, the measures taken by Uzbekistan in the process of joining the WTO and the new opportunities that will open up for the development of the country's foreign trade relations through membership in this organization are described.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ *eksport, import, savdo rejimi, preferensiya, tarif, proteksionizm, integratsiya, xalqaro raqobat, investitsiya, subsidiya.*

❖ *export, import, trade regime, preference, tariff, protectionism, integration, international competition, investment, subsidy.*

Kirish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini kengaytirish, xorijiy davlatlar bilan imtiyozli savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali jahon bozorlarida barqaror pozitsiyani egallashga qaratilgan iqtisodiy o'zgarishlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda tashqi iqtisodiy munosabatlar, ayniqsa tashqi savdo faoliyatining o'rnini juda katta bo'lib, hukumatimiz tomonidan eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar izchil ravishda hayotga tatbiq etilmoqda. Ayni paytda mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi eksport imkoniyatlarini yanada kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, so'nggi yillarda Jahon savdo tashkilotiga a'zolik masalasi yuzasidan ishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Jumladan, a'zo davlatlar bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama muzokaralarni yakuniga yetkazish, shuningdek, milliy qonunchilikni JST bitimlari talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasida ko'zda tutilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish, shu jumladan, milliy iqtisodiyotning mavjud salohiyatini ro'yobga chiqarish, uning global ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymat zanjiriga integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, erkin bozor tamoyillarini amalga tatbiq etishni kengaytirish hamda O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zoligiga erishishni jadallashtirish maqsadida 2024-yil 3-iyun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi [1]. Ushbu farmonga muvofiq davlat xaridlarini amalga oshirishda sog'lom raqobat muhitini ta'minlash, milliy qonunchilikni Jahon savdo

tashkilotining Subsidiyalar va kompensatsiya choralari to'g'risidagi bitimiga (ASCM) muvofiqlashtirish hamda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan bojxona boji, yig'imi va qiymatini Jahon savdo tashkilotining Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitimi (GATT 1994) talablariga moslashtirish maqsadida qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Zamonaviy sharoitda mamlakatlar o'rtasidagi tashqi savdo aloqalarini faollashtirishda imtiyozli savdo rejimlaridan foydalanishning asosiy jihatlari va ushbu jarayonda JSTning roli, JSTga a'zolikka kirishning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati va afzallik tomonlari, JSTga a'zolikka kirishdagi asosiy talablar ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlar alohida ilmiy yondoshuvlarga egadir. Jumladan, A.S.Loginova Rossiya va Xitoyning JSTga kirish tajribasi, a'zolikka kirish talablarining bajarilishi hamda uning iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sirlarini tadqiq etgan [7].

I.N. Belova xalqaro savdo tushunchasini ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va savdoning globallasuvi sharoitida xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan turli mamlakatlar o'rtasidagi tovar va xizmatlar almashinuv deb ta'riflaydi [2].

G.P. Solodkov talqiniga ko'ra, xalqaro savdo global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha davlatlari va iqtisodiy guruhlarini ishtirok etadigan, bitta iste'molchining xohishiga bog'liq bo'lmagan ijtimoiy munosabatlar majmui hisoblanadi [11].

Z.M. Muratova va K.N. Yusupov ilmiy tadqiqotlarida xalqaro savdoni tartibga solishni davlat tomonidan tartibga solish va xalqaro shartnomalar orqali tartibga solish darajasida ko'rib chiqqan [8].

Yu.V. Normova ta'kidlashicha, Jahon savdo tashkiloti o'z faoliyatiga oid materiallarni

Jahon Savdo Hisoboti (World Trade Report - jahon bozorlaridagi savdo yo'nalishlarining o'zgarishi va turli mamlakatlarning savdo siyosati haqidagi muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yillik nashr), Xalqaro Savdo Statistikasini (International Trade Statistics - mintaqalar, mahsulot turlari va savdo birjasi shakllari bo'yicha savdo operatsiyalari bo'yicha batafsil statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yillik nashr) va yillik hisoboti (Jahon Savdo Tashkilotining rivojlanish rejalari, tuzilmasi va xodimlarini o'z ichiga olgan yillik faoliyati to'g'risidagi ma'lumot)da e'lon qilib boradi [10].

V.I. Eremenko ilmiy izlanishlarida Jahon Savdo Tashkiloti tovarlar, xizmatlar va intellektual mulkning jahon savdosini tartibga solishda, shuningdek, a'zo mamlakatlarning savdo siyosatini shakllantirishda va ular o'rtasidagi savdo nizolarini hal qiluvchi tashkilot deb tavsiflaydi [3].

M.V. Novikov, S.V. Zemlyanskayalarning ilmiy tadqiqot ishlari tashqi savdo munosabatlarini liberallashtirish sharoitida bojxona tarif siyosatini shakllantirish tamoyillari, bojxona ittifoqi doirasida tarif imtiyozlaridan foydalanishga bag'ishlangan [9].

S.P. Udovenko va Yu.V. Kuzminykhlarining tadqiqotlarida xalqaro savdoda tarif imtiyozlari tizimi va zamonaviy sharoitda uni joriy etish xususiyatlari, bosqichlari va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun imtiyozli tariflarni joriy etish hamda uni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlangan [13].

Jahon iqtisodiyoti globallasuvi va xalqaro raqobatlashuvning keskinlashishi sharoitida mamlakatlarning tashqi bozorlaridagi faoliyatida muayyan darajada murakkabliklar vujudga keladi, mazkur jarayonda tashqi savdoni rivojlantirish uchun imtiyozli tizimlarning joriy etilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hozirgi globallasuv sharoitida jahon bozoridagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarni hisobga olgan holda tashqi

savdoning imtiyozli tizimlaridan foydalanishning asosiy jihatlarini tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda deduksiya, induksiya, qiyosiy tahlil, statistik va sifatli tahlil metodlaridan foydalanilgan. Deduksiya yordamida umumiy iqtisodiy tamoyillar va xalqaro savdo tizimi qoidalaridan konkret natijalarga erishildi. Induksiya orqali amaliy tajribalar va mavjud ma'lumotlar asosida umumiy xulosalar chiqarildi. Qiyosiy tahlil metodidan turli davrlar va sharoitlar o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni aniqlashda foydalanildi. Shu bilan birga, statistik ma'lumotlar va raqamli ko'rsatkichlar tadqiqotning obyektivligini oshirdi, sifatli tahlil esa xavf va muammolarni chuqurroq tushunishga imkon berdi. Bu metodlarning kombinatsiyasi tadqiqot natijalarini ilmiy asoslash va mantiqiy xulosalarga erishishga yordam berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi kunda ko'plab iqtisodiy tadqiqotlarda mamlakatlarning JSTga a'zolikka kirishi bilan bog'liq tajribasi, bajarilishi lozim bo'lgan asosiy talablar, JSTga kirishning milliy iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sirlari keng muhokama qilinayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan JST faoliyatining mohiyati, uning maqsad va vazifalari, JSTga a'zo bo'lishning afzalliklari xususida to'htalib o'tish maqsadga muvofiq.

1995-yilda tashkil etilgan Jahon Savdo Tashkiloti (JST) davlatlar o'rtasidagi savdoning global qoidalari bilan shug'ullanuvchi yagona xalqaro organ sifatida Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv (GATT) o'rnini egalladi. JSTning asosiy maqsadlaridan biri proteksionizmga qarshi kurashish hisoblanadi. JST xalqaro savdo munosabatlarida tashkilotga a'zo mamlakatlar uchun qulay huquqiy tizimni taqdim etadi. Tashkilotga a'zo mamlakatlar tomonidan o'zaro kelishilgan holda qabul qilingan hujjatlar mamlakatlarning o'z savdo siyosatlarini belgilangan mezonlar doirasida

olib borishlarida mas'uliyat yuklaydi. Tashkilotda qarorlar ishtirokchi mamlakatlar yordamida konsensus – umumiy ovoz berish orqali qabul qilinadi.

JST faoliyati ko'p tomonlama savdo muzokaralarining Urugvay raundining Bitimlari to'plami asosida Tashkilot a'zolari o'rtasidagi savdo munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan. Ushbu hujjatlar zamonaviy xalqaro savdoning huquqiy asosidir.

JSTni ta'sis etish to'g'risidagi Bitim a'zo mamlakatlarning ko'p tomonlama savdo munosabatlariga ta'sir etuvchi muammolarni hal qilish va Urugvay raundidagi kelishuvlarning bajarilishini nazorat qilish uchun doimiy faoliyat ko'rsatadigan forumni yaratishni nazarda tutadi. JST GATT bilan deyarli bir xil ishlaydi, lekin u kengroq savdo bitimlarini (jumladan, xizmatlar savdosi va savdo bilan bog'liq intellektual mulk huquqlarini) nazorat qiladi va qarorlar qabul qilish tartib-qoidalarini takomillashtirish va a'zolar tomonidan amalga oshirish uchun ancha katta vakolatlarga ega. JSTning ajralmas qismi savdo nizolarini hal qilishning noyob mexanizmi hisoblanadi.

1947-yildan boshlab ko'p tomonlama savdo muzokaralari doirasida jahon savdosini erkinlashtirishning global muammolari va rivojlanish istiqbollari GATT asosida muhokama qilingan. JSTning asosiy maqsadi jahon savdosini yanada liberallashtirish va adolatli raqobat sharoitlarini ta'minlashdan iborat.

GATT/JSTning asosiy tamoyillari va qoidalari quyidagilardan iborat:

- savdoda eng ko'p qulaylik yaratish rejimini o'zaro ta'minlash;
- chet elda ishlab chiqarilgan tovarlarga va taqdim etiladigan xizmatlarga milliy rejimni ta'minlash;
- savdoni birinchi navbatda tarif usullari bilan tartibga solish;
- miqdoriy va boshqa cheklavlardan foydalanishni rad etish;
- savdo siyosatining shaffofligi;

- savdo nizolarini maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan hal qilish va boshqalar.

JSTning muhim funksiyalari quyidagilardan iborat:

- Urugvay raundining hujjatlar paketi kelishuvlari va bitimlarning bajarilishini nazorat qilish;
- manfaatdor a'zo davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama savdo muzokaralarini olib borish;
- savdo nizolarini hal etish;
- a'zo mamlakatlarning milliy savdo siyosatini monitoring qilish;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga JST vakolatlari doirasida texnik yordam ko'rsatish;
- xalqaro ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorlik.

JSTga a'zolikka kirishning mamlakat uchun afzal jihatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- JSTga a'zo mamlakatlar bilan savdo aloqalari rivojlanishining prognozligi va barqarorligi, shu jumladan, ularning tashqi iqtisodiy siyosatining shaffofligi asosida tovarlar va xizmatlarning jahon bozorlariga chiqish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni olish;
- hamkorlar tomonidan milliy manfaatlar buzilgan taqdirda ularning himoya qilinishini ta'minlashda JSTning nizolarni hal qilish mexanizmiga kirish orqali savdodagi kamsitishlarni bartaraf etish;
- xalqaro savdoning yangi qoidalarini ishlab chiqishda ko'p tomonlama savdo muzokaralarida samarali ishtirok etish orqali ularning joriy va strategik savdo-iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish imkoniyati.

JSTning barcha a'zolari birgalikda "Ko'ptomonlama savdo bitimlari" deb nomlanuvchi asosiy kelishuvlar va huquqiy hujjatlarni amalga oshirish majburiyatini oladilar. Shunday qilib, huquqiy nuqtai nazardan, JST tizimi o'ziga xos ko'p tomonlama shartnoma (kelishuvlar to'plami) bo'lib, uning normalari va qoidalari butun jahon tovarlar va xizmatlar savdosining taxminan 97 foizni tartibga soladi. Urugvay raundi bitimlar paketi

50 dan ortiq ko'ptomonlama savdo bitimlari va boshqa huquqiy hujjatlarni o'z ichiga oladi, ulardan asosiysi JSTni ta'sis etish to'g'risidagi bitimdir [17].

JSTning vazifalari – ma'lum qoidalarga asoslangan tizim doirasida savdo jarayonini tartibga solishga yordam berish; hukumatlar o'rtasidagi savdo nizolarini holisona hal etish; savdo muzokaralarini tashkil etishdan iborat. Ushbu faoliyat JSTning 60 ta kelishuviga – xalqaro savdo va savdo siyosatining asosiy huquqiy normalariga asoslanadi. Ushbu kelishuvlar asos bo'lgan tamoyillar orasida kamsitilmaslik, erkin savdo shartlari, raqobatni rag'batlantirish va kam rivojlangan mamlakatlar uchun qo'shimcha qoidalar kiradi. JST unga a'zo bo'lgan mamlakatlardan ichki bozorni erkinlashtirishni qat'iy talab qiladi. Aksariyat mamlakatlarda ushbu vazifani bajarish unchalik oson kechmaydi, chunki arzon va sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi xorijiy korxonalar bilan raqobatlasha olmaydigan milliy korxonalar tanazzulga uchrashi mumkin.

JST dunyodagi eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilot bo'lib, hozirgi kunda unga 166 a'zo davlat vakillari kiradi, ushbu davlatlar global savdo va Butun dunyo yalpi ichki mahsulotining 98 foizdan ortig'ini tashkil etadi. JST tashkil etilganidan beri telekommunikatsiyalar, axborot texnologiyalari va moliyaviy xizmatlar bozorlarini ochish bo'yicha muvaffaqiyatli muzokaralar uchun forum bo'lib xizmat qilmoqda. JST doirasida 200 dan ortiq savdo nizolari hal etilgan.

JSTga a'zolikka kirishning tashqi savdo munosabatlariga ta'siri yuzasidan Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi tajribalarini qiyosiy jihatdan tahlil qilib o'tamiz.

Xitoyning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvi milliy iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda sodir bo'ldi. Globallashtirilgan iqtisodiy tendensiyalar esa Xitoyning xalqaro iqtisodiy munosabatlar

tizimiga integratsiyalashuvi zaruriyatini taqazo etdi.

Xitoyning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha muzokaralar 1986-yilda boshlangan va 15 yil davom etgan. 2001-yil 11-dekabrda Xitoy Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikka qabul qilingan, bu qo'shilish mamlakatda bozor islohotlarini keng ko'lamda amalga oshirish uchun turtki bo'ldi. Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik Xitoyga iqtisodiy masalalar bo'yicha xalqaro maydonda ovoz berish huquqini berdi. JSTga a'zolik Xitoy ishlab chiqaruvchilariga yanada qulay shartlarda tashqi bozorlariga chiqish imkonini yaratdi.

Ta'kidlash joizki, Xitoy uchun JSTga a'zo bo'lish murakkab jarayon bo'lib, muzokaralar keskin kechdi va pirovardida Xitoy katta miqdordagi majburiyatlarni qabul qilishga majbur bo'ldi. Shunga qaramay, u yanada qulayroq a'zolik shartlarini olgan holda rivojlanayotgan davlat sifatida JSTga a'zo bo'lishga muvaffaq bo'ldi. Muzokaralarga parallell ravishda Xitoy mamlakatda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirdi. Xususan, Xitoy hukumati kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratdi. Shunday tarzda, JSTga a'zo bo'lishdan oldin ichki islohotlarni amalga oshirgan va a'zolikka kirish orqali imtiyozlarga ega bo'lgan Xitoy xalqaro iqtisodiyotga muvaffaqiyatli integratsiyalasha oldi [6].

Xitoy savdoning deyarli barcha jabhalarini (qishloq xo'jaligi, importni litsenziyalash, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, texnik to'siqlar va investitsiya choralari) qamrab olgan majburiyatlarni oldi. Xitoydan mahsulotlarning yuzlab turlari bo'yicha kvotalar va litsenziyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish, qishloq xo'jaligi va sanoat tovarlari importida davlat monopoliya-si bekor qilinishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va sanoat tovarlari eksportini subsidiyalashni to'xtatish talab qilindi.

Mamlakat JSTga a'zo bo'lganidan beri 7000 ga yaqin tariflar va boshqa savdo to'siqlari qisqartirildi. Sanoat mahsulotlariga bojlar

25 foizdan 7 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga esa 31 foizdan 14 foizga tushirilishi kerak edi [12]. Shuningdek, Xitoy sug'urta, bank xizmatlari, professional xizmatlar va telekommunikatsiya sohalarida yo'nalishlarni ochishi kerak edi.

Xitoyning JSTga a'zolidagi eng katta xavf (ta'kidlash joizki, Rossiya kabi) qishloq xo'jaligi, avtomobil sanoati va bank sektori bilan bog'liq edi. Mamlakatda qishloq xo'jaligidagi vaziyat yomonlashdi, ammo davlatning maxsus rag'batlantirish dasturlari tufayli bu muammo bartaraf etildi. Davlat chora-tadbirlari ishchilarni qishloq xo'jaligidang engil sanoatga yo'naltirish va shu bilan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning qisqarishi tufayli ushbu sohada ortib borayotgan ishsizlikni oldini olishga qaratilgan edi. Xitoy hukumati qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini subsidiyalar bilan himoya qildi. Ushbu tarmoqni qo'llab-quvvatlash uchun Xitoy "yashil savat" chora-larini qo'lladi. JST roziligi bilan makkajo'xori, paxta, sholi va bug'doyga import kvotalari joriy etildi [4].

Avtomobil sanoatidagi alohida muammo shundaki, Xitoy bu sohada eng kam ustunlikka ega. Shu sababli, Xitoy kompaniyalari eng ko'p 50 foiz ulushga ega bo'lgan xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar yaratishni boshladilar. Masalan, Volkswagen Shanghai Automotive Industry (SAIC) va First Automotive Works (FAW) bilan qo'shma korxonalar tuzdi. SAIC, shuningdek, GM bilan, FAW esa Toyota bilan qo'shma korxona tuzdi. Honda va PSA Peugeot Citroen kompaniyalari Dongfeng Motor Corp bilan qo'shma korxonalar tashkil etdi.

Biroq, xorijiy investorlar Xitoy texnologiyalarini rivojlantirishdan manfaatdor emas edilar va o'z kompaniyalarini tayyor butlovchi qismlardan avtomobillarni yig'ishga yo'naltirdilar va shu bilan o'z texnologiyalarini Xitoyga tarqalishidan samarali himoya qildilar.

Bank sektorini liberallashtirish muammosi xorijiy banklarning evolyutsion tarzda jalb etilishi natijasida yumshatilgan.

Dastlab, Tayvan, Janubiy Koreya va Gonkong banklari paydo bo'ldi va shundan keyingina bozorga yirik xalqaro banklar kirdi. Xitoy banklarda xorijiy kapital ulushiga nisbatan 25 foiz chegarani belgiladi. Natijada, xorijiy banklar o'zlarining sho'ba korxonalarini ochdilar va keyinchalik Xitoy banklari bilan birlashdilar [14].

Xitoyning savdo hamkorlari bilan munosabatlaridagi jiddiy muammolardan biri intellektual mulkning himoyalanganligidir. Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoyda intellektual mulk obyektlarini himoya qilish muammosi boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga makro darajada kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan Xitoyda soxta mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va qaroqchilik ko'lami doimiy ravishda oshib bormoqda. Intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqni yetarli darajada himoya qilinmaganligi tufayli ko'plab rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimi va mehnat bozori zarar ko'rmoqda.

2023-yilda dunyo bo'ylab 2022-yilga nisbatan 77 foizga ko'proq kontrafakt mahsulotlar aniqlangan. 2030-yilga borib qalbaki mahsulotlarning jahon savdosi 1,79 trln. dollarni tashkil etishi kutilmoqda, bu 2023-yilga nisbatan 75 foizga va shu davrdagi prognoz qilingan jahon iqtisodiy o'sishidan 3,6 baravar ko'p.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida Xitoy iqtisodiyoti xalqaro standartlarga javob bera boshladi, bu esa xorijiy sarmoyadorlarni jalb qildi. Xitoy ichki bozori to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirdi, bu esa o'z navbatida ish o'rinlari yaratilishiga va aholi daromadlari darajasining oshishiga yordam berdi [5]. Xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi Xitoyning xalqaro aloqalarini kengaytirdi. Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning teskari ta'sirini unutmashlik kerak, bu ko'pincha arzon ishchi kuchidan foydalanishni o'z ichiga oladi va qo'shimcha qiymati past bo'lgan tarmoqlarga yo'naltiriladi.

1-jadval

2001-2023-yillarda Xitoy Xalq Respublikasi tashqi savdo aylanmasi (mlrd. dollar)*

Yillar	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	Savdo balansi
2001	266,2	243,6	509,8	22,6
2002	325,2	295,2	620,4	30,0
2003	438,6	412,8	851,4	25,8
2004	593,4	561,4	1154,8	32,0
2005	762,0	660,4	1422,4	101,6
2006	969,1	791,6	1760,7	177,5
2007	1120,6	955,8	2076,4	164,8
2008	1430,7	1132,6	2563,3	298,1
2009	1201,7	1005,6	2207,3	196,1
2010	1497,9	1349,8	2847,7	148,1
2011	1898,6	1743,4	3642,0	155,2
2012	2048,9	1817,8	3866,8	231,1
2013	2485,6	2103,1	4588,7	382,4
2014	2342,3	1959,2	4301,5	383,1
2015	2273,5	1679,6	3953,0	593,9
2016	2097,6	1587,9	3685,6	509,7
2017	2263,4	1843,8	4107,2	419,6
2018	2486,4	2133,6	4620,1	352,8
2019	2782,7	2128,5	4911,1	654,2
2020	2870,6	2447,1	5317,6	423,5
2021	3710,3	3106,4	6816,7	603,9
2022	3968,5	3171,6	7140,1	796,9
2023	3761,2	3108,8	6870,0	652,4

*Manba: <https://www.statista.com/>

Jadval ko'rsatkichlarini tahlil qilishdan ko'rinib turibdiki, Xitoyning JSTga a'zo bo'lganidan keyin eksport va import o'sish sur'ati sezilarli darajada tezlashgan. JSTga a'zo bo'lishdan oldin (2000-yilda) mamlakatning jahondagi eksportdagi ulushi 3,9 foiz, importdagi ulushi esa 3,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda eksportdagi ulushi 15 foiz, importdagi ulushi 10,6 foizga yetdi. Natijada, 2001-2023-yillarda tashqi savdo aylanmasi 509,8 dan 6870,0 mlrd. dollargacha oshdi. Xususan, tashqi savdo aylanmasi hajmi 2023-yilda 2001-yilga nisbatan 13,6 barobar,

savdo balansi esa 26,1 barobarga oshgan. Shu davrda tashqi savdo aylanmasi o'rtacha 13,5 foizga, savdo balansi esa o'rtacha 26,5 foizga o'sish ko'rsatdi.

Ushbu tahlil asosida xulosa qilish mumkinki, JSTga a'zolik Xitoy iqtisodiyotining yanada liberallashtirilishi va xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini rag'batlantirgan. Shuningdek, Xitoyning JSTga a'zo bo'lishi amaliyoti bo'yicha xorijiy tadqiqotlar tahlili 1-3 yil davomida uning ijobiy va salbiy oqibatlarini aniqlash imkonini beradi.

2-jadval

Xitoyning JSTga a'zolicigining ijobiy va salbiy ta'sirlari*

Ijobiy ta'sirlar	Salbiy ta'sirlar
Yuqori iqtisodiy o'sish (Xitoy yalpi ichki mahsuloti 2001-yildagi 10 trln. yuandan 2011-yilda 47,29 trln. yuangacha o'sdi)	Tashqi savdoning jahon iqtisodiyoti va siyosiy vaziyatga yuqori darajada bog'liqligi
Mamlakat tashqi savdosining jadal o'sishi (eksport va import hajmi 509,80 dan 4588,68 mlrd. dollargacha o'sdi)	Eksportga asoslangan iqtisodiy o'sish arzon ishchi kuchi va tabiiy resurslarning kamayishi hisobiga amalga oshiriladi
Ayrim turdagi tovarlarni (masalan, avtomobillar, maishiy texnika) ishlab chiqarish va sotishda yetakchiga aylanish	Ekologik vaziyatning yomonlashishi
Mahalliy iste'mol tovarlari bozori sig'imini kengaytirish (chakana savdo hajmi 3,76 dan 17,1 trln. yuangacha o'sdi)	Arzon Xitoy tovarlari kirib kelishi va mahalliy ishlab chiqarishning pasayishi tufayli import qiluvchi mamlakatlarda ish o'rinlarining qisqarishi sababli tashqi dunyo bilan munosabatlarda bahslarning yuzaga kelishi
Sanoat ishlab chiqarishining keskin o'sishi (Xitoyning umumiy sanoat qo'shilgan qiymati 4,26 trln. yuandan 18,85 trln. yuangacha ko'tarildi)	Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ishlab chiqarishni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi raqobatbardosh bo'lmagan Xitoy mahsulotlariga nisbatan proteksionistik choralarini qo'llamaslik bilan bog'liq majburiyatni olish zarurati
Xitoyga xorijiy investitsiyalarning ko'payishi (investitsiyalarning o'sish sur'ati 13 yil ichida 40 foizga o'sdi)	-
Milliy ishlab chiqaruvchiga zarar yetkazmagan holda bojxona to'lovlarini kamaytirish (15,3 foizdan 9,8 foizga)	-

*Ilmiy tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Xitoyning JSTga a'zo bo'lish tajribasini o'rganib chiqib, shuni aytish mumkinki, hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotining o'zgaruvchan kon'yunktura sharoitida Xitoy rolining faol

tarzda o'sishi kuzatilmoqda. Mamlakat global iqtisodiyotga ta'sir etuvchi asosiy markazga aylanmoqda.

3-jadval

2023-yilda Xitoy Xalq Respublikasining mamlakatlar bilan tovarlar bo'yicha tashqi savdo aylanmasi (mlrd. dollar)*

Mamlakat	Tovarlar bo'yicha tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Savdo balansi
AQSh	666,0	501,0	165,0	336,0
Yaponiya	317,0	157,0	160,0	-3,0
Janubiy Koreya	309,0	148,0	161,0	-13,0
Gong Kong	299,3	274,0	25,3	248,7
Rossiya	239,0	110,0	129,0	-19,0
Vyetnam	229,1	137,0	92,1	44,9
Germaniya	206,0	100,0	106,0	-6,0
Malayziya	189,0	87,0	102,0	-15,0
Hindiston	135,5	117,0	18,5	98,5
Gollandiya	118,0	100,0	18,0	82,0
Jami	2707,9	1731,0	976,9	754,1

*Manba: <https://www.statista.com/>

2023-yilda Xitoyning asosiy tashqi savdo hamkorlari bilana tovarlar bo'yicha tashqi savdo aylanmasi hajmi 2707,9 mlrd. dollarlani yoki jamiga nisbatan 39,4 foizni tashkil etgan. 10 ta asosiy hamkor mamlakatlar bilan tovarlar bo'yicha tashqi savdo bo'yicha AQSh, Gong Kong, Vyetnam, Hindiston va Gollandiya mamlakatlarida ijobiy (810,1 mlrd. dollar) hamda Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Germaniya va Malayziya mamlakatlarida salbiy (-56,0 mlrd. dollar) saldo kuzatilgan. Xitoy tashqi savdosida asosiy hamkor mamlakat AQSh

bo'lib, jami tovarlar bo'yicha tashqi savdo aylanmasining 9,7 foizi (666,0 mlrd. dollar) ushbu mamlakat hissasiga to'g'ri keladi. AQSh bilan tovarlar bo'yicha o'zaro savdoda ijobiy saldo kuzatilib, 336,0 mlrd. dollarlani tashkil etgan.

Xitoy va Rossiyaning JSTga kirishi murakkab va uzoq davom etgan jarayon bo'ldi. Avvalo, ikki davlat o'rtasidagi JSTga a'zo bo'lishga tayyorlik darajasi bo'yicha tafovutlarni keltirib o'tamiz.

4-jadval

*Xitoy va Rossiyaning JSTga kirishga tayyorlik darajasidagi farqlar**

<i>Xitoy</i>	<i>Rossiya</i>
<i>Rivojlanayotgan davlat sifatida JSTga qo'shildi va imtiyozlar to'plamini oldi</i>	<i>Xitoyga berilgan imtiyozlarni olmagan holda rivojlangan davlat sifatida qo'shildi</i>
<i>Qo'shilish bo'yicha muzokaralar jadal islohotlar va iqtisodiyotni jahon savdosi shartlariga muvofiq modernizatsiya qilish bilan parallel ravishda amalga oshirildi</i>	<i>Mamlakat JSTga a'zo bo'lganidan keyin iqtisodiyotini isloh qilish va modernizatsiya qilishni boshladi</i>
<i>Kichik va o'rta biznesni moslashtirish bo'yicha faol choralar amalga oshirildi. Dastlab kichik va o'rta biznesga e'tibor qaratilgan.</i>	<i>Kichik va o'rta biznes darajasida JST shartlariga moslashish bo'yicha sezilarli choralar amalga oshirilmagan. Kichik va o'rta biznes Rossiya iqtisodiyotining jiddiy tarkibiy qismi sifatida e'tiborga olinmagan.</i>
<i>Davlat xodimlari, tadbirkorlar va universitet talabalar uchun keng ko'lamli axborot-ta'lim dasturi o'tkazilgan.</i>	<i>Bunday dastur o'tkazilmagan.</i>
<i>Kuchli moliyaviy tizim.</i>	<i>Hozirgi kunda milliy moliya tizimini mustahkamlash choralari ishlab chiqish boshlangan.</i>
<i>Yirik mehnat resurslari va arzon ishchi kuchining mavjudligi.</i>	<i>Kerakli miqdordagi mehnat resurslarining yetishmasligi va mehnat salohiyatining pastligi.</i>

**Ilmiy tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Yuqaridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Xitoyning JSTga a'zolikka kirish talablariga tayyorlik darajasi yuqori bo'lgan. Rossiya JSTga 18 yil davomida a'zo bo'lgan (Xitoy 15 yilda), ammo shunga qaramay, Rossiya iqtisodiyotining xalqaro bozorga chiqishga tayyorligi ko'p omillarga bog'liq bo'lgan.

"Rossiya Federatsiyasining 1994-yil 15-apreldagi Jahon savdo tashkilotini ta'sis etish to'g'risidagi Marrakesh bitimiga qo'shilishi to'g'risidagi Bayonnomasining 1-ilovasiga (tarif imtiyozlari ro'yxati) asosan Xitoy va Rossiyaning JSTga kirish shartlari va imtiyozlari bo'yicha quyidagicha qiyosiy jadval tuzish mumkin.

5-jadval

Xitoy va Rossiyaning JSTga kirish shartlari va imtiyozlari*

Xitoy	Rossiya
Tariflarni pasaytirish: – sanoat mahsulotlari uchun 27 foizdan 7 foizgacha; – qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun 31 foizdan 14 foizgacha	Tariflarni pasaytirish: – sanoat mahsulotlari uchun 11,23 dan 7,57 foizgacha; – qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun 18,18 dan 14,6 foizgacha. Tovarlarining butun assortimenti bo'yicha o'rtacha 11,233 dan 7,57 foizgacha
Bank, sug'urta, telekommunikatsiya va professional xizmatlar sohalarining ochilishi	Qishloq xo'jaligiga subsidiyalarni cheklash
Oshkorlik masalalari bo'yicha islohotlar o'tkazish, tayyorlanayotgan qonunchilik choralarini tushuntirish va ularga amal qilish. Qonunlarning yagona qo'llanilishi va sud nazorati	Tovarlarining ayrim guruhlarini (masalan, cho'chqa va parranda go'shti) uchun kvotani bosqichma-bosqich bekor qilish
Intellectual mulkni himoya qilish jihatlari	Eksport uchun bojxona bojlari stavkalarini "bog'lash" va qisqartirish (taxminan 700 tarif liniyasi)
3 yil davomida Xitoyga va undan to'g'ridan-to'g'ri eksport qilish va import qilish huquqi	Milliy rejim darajasida xorijiy xizmatlar bozoriga kirish
Ushbu mamlakatda investitsiya ishtirokini o'rnatmasdan Xitoyga eksport qilish huquqi	Qonunchilik bazasini JST normalari va shartlariga muvofiqlashtirish (farmatsevtika bozori; intellektual mulk; bojxona faoliyatini tartibga solish; bank sohasi; qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va boshqalar. 700 ga yaqin qonun hujjatlari qayta ko'rib chiqilgan)
Notarif tartibga solish choralarini bosqichma-bosqich bekor qilish	Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga solish xususiyatlari
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini subsidiyalashni bekor qilish, import o'rnini bosishni bekor qilish, sanoat mahsulotlari eksportini subsidiyalash	Davlat xaridlari bo'yicha shartnoma
Qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini import qilishda davlat monopoliyasini bekor qilish	Sanitariya, fitosanitar choralari va savdodagi texnik to'siqlar; intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning savdo jihatlari

*Ilmiy tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

JSTga a'zo bo'lishga tayyorlik darajasi va iqtisodiyotlar holatidagi mavjud farqlarga qaramay, Rossiya va Xitoyning JSTga kirish shart-sharoitlari o'xshashdir. Har ikki davlatda 20-asrda tashqi savdoning asosini davlat korxonalari tashkil etgan. Xitoyda ham, Rossiyada ham intellektual mulkni himoya qilish, davlat siyosatining shaffofligini ta'minlash, qonunchilikni moslashtirish, texnik standartlar va qoidalar, shuningdek, davlat

xaridlari tizimi bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lgan.

JSTga a'zo bo'lgunga qadar har ikki davlat iqtisodiyoti tashqi savdoga yuqori darajada bog'liqligi bilan ajralib turgan. Faqatgina Xitoyda tashqi iqtisodiy ayirboshlash eksport, reeksport sohasi va texnologik bog'liqlik bilan chegaralangan, ya'ni Xitoyning ichki iqtisodiyoti tashqi dunyodan ajratilgan edi [4].

Shunday qilib, ko'plab mamlakatlarning JSTga a'zolikka kirishi va iqtisodiyot JST

talablariga moslashishning zaruriy choralarini qo'llashda Xitoyning ijobiy tajribasi muhim rol o'ynagan. Chunki bu holat JSTga a'zolikka kirish orqali tovar va mahsulotlarni jahon bozorlariga olib chiqishga, shu bilan birga JST tomonidan belgilangan talablariga zid bo'lmagan turli xil choralar yordamida ichki bozorni himoya qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi JSTga 1994-yilda a'zo bo'lish to'g'risida ariza topshirgan va a'zolikka kirish yuzasidan muzokaralar olib bormoqda. O'zbekistonning JSTga to'la huquqli a'zo sifatida kirishi xalkaro savdo tizimi va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatlar JSTga a'zo bo'lish orqali tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasida kamsitilmaydigan va adolatli savdo tizimi, tariflarni himoya qilishning maksimal darajasi va import kvotalari bekor qilinishi, raqobatbardoshlik darajasini oshirish uchun tovarlarni arzon narxlarda import qilish kabi muhim afzalliklarga ega bo'ladi.

Shu bilan birgalikda, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, xususiyl sektorini zararli savdo faoliyatidan himoya qilishda ko'maklashish, mamlakatdagi savdo bilan shug'ullanuvchi institutlar faoliyatini mustahkamlash, ularga huquqiy va institutsional siyosatni tartibga solishda yordam ko'rsatish, xalkaro savdo sohasidagi muzokaralarida faol ishtirok etish, xalkaro savdoni rivojlantirishga oid normalar ishlab chiqish orqali tashkilotga a'zo mamlakatlar manfaatlarini himoya qilish kabilar JSTning afzalliklaridan hisoblanadi.

Mamlakatning JSTga a'zo bo'lishi unga yuqorida qayd etilgan afzalliklarni taqdim etishi bilan bir qatorda a'zo mamlakat uchun bir qator majburiyatlarni ham belgilaydi. Bu jarayon uzoq muddatli va murakkab muzokaralardan iborat bo'lib me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish, inson resurslari va institutsional salohiyatni mustahkamlash, sanoat sohasida barqaror rivojlanishga erishish kabilarni talab etadi.

Mamlakatni a'zolikka qabul qilish jarayoni ishchi guruhni tuzish va ular ishtirokida muzokaralar o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Ishchi guruh tomonidan ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralar olib boriladi. O'tkazilgan muzokaralarning muvaffaqiyatli yakunlanishi qo'shilish bo'yicha ishchi guruh tomonidan qabul qilinishi va JST Bosh kengashi yoki Vazirlar konferensiyasi tomonidan ma'qullanishi kerak bo'lgan qo'shilish jarayonidan iborat.

Dunyo mamlakatlarining JSTga a'zo bo'lish jarayonida Xalqaro Savdo Markazining roli muhim bo'lib, u o'z faoliyati orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, savdo-iqtisodiy va investitsion munosabatlarni rivojlantirish maqsadida xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvni kuchaytirishga imkon yaratadi.

Ushbu maqsad doirasida Xalqaro Savdo Markazi mamlakatlarning JST tizimi haqidagi xabardorligini oshirish, tashqi savdo rejimi to'g'risidagi memorandum va qonunchilik bilan bog'liq harakatlar rejasini ishlab chiqishda ko'maklashish, integratsiyalashgan xizmatlar va tovarlar bo'yicha dastlabki takliflarni tayyorlashda yordam berish, xalqaro savdo faoliyatiga oid turli masalalar bo'yicha bilim va ko'nikmalar bazasini yaratish, muzokaralarda samarali ishtirok etishni ta'minlash uchun konsalting xizmatlari ko'rsatish kabi yo'nalishlarda faoliyat olib boradi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishga tayyorgarlik jarayoni 1994-yilda boshlangan, biroq bu davrda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat olib borilganligi sababli mazkur jarayon 2005-yilda muzlatib qo'yilgan.

O'zbekiston 1995-yilda ariza topshirgan bo'lishiga qaramay, faqat 2017-yildan boshlab, ijobiy siljish kuzatilayapti. Bunga so'nggi yillarda respublika iqtisodiyotida davlatning roli va ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishga bozor prinsip va mexanizmlarini keng joriy qilish, xususiyl

tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va "xufyona" iqtisodiyot ulushini qisqartirish, eksport salohiyatini oshirish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, xorijiy kapitalni keng jalb etish, shuningdek aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'sirchan chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Mamlakatimizda 2016-yildan keyin amalga oshirilgan milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish borasidagi faol islohotlardan so'ng 2018-yil mart oyidan O'zbekistonning JSTga a'zolikka kirish jarayoni qayta boshlangan. 2019-yil iyul oyida O'zbekiston JST a'zoliciga kirish yuzasidan Tashqi savdo rejimi to'g'risidagi yangilangan memorandumni va boshqa bir qator hujjatlarni, jumladan tovar va xizmatlar bozoriga kirish bo'yicha ishlab chiqilgan dastlabki takliflarni taqdim etdi.

O'zbekistonning JSTga a'zolikka kirishi tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishda ko'proq rag'bat va jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash imkoniyatidir. O'zbekistonning JSTga a'zolikka kirishida mamlakatda amalga oshirilayotgan quyidagi chora-tadbirlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

- mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlash borasidagi keng ko'lamli islohotlar;
- iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilganligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar;
- kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash borasida yaratilgan shart-sharoitlar;
- ichki bozorda xorijiy ishlab chiqaruvchilar uchun berilgan imkoniyatlar;
- faol investitsiya siyosatining amalga oshirilayotgani;
- qonunchilik bazasini doimiy ravishda takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar.

O'zbekistonning JSTga kirishiga ko'maklashish" bo'yicha ishlab chiqilgan besh yillik loyihasi Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Mazkur loyiha 2020-yil fevral oyida boshlangan bo'lib, unda mamlakatning JSTga qo'shilish jarayonida milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha rivojlanish rejalarini qo'llab-quvvatlashga asosiy e'tibor berilgan. Loyihani amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad JST tomonidan belgilangan qoidalariga mos keladigan savdo muhitini yaratish orqali O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish hamda xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvini kuchaytirishdan iborat.

O'zbekistonning a'zo bo'lish jarayoni 2020-yil iyul oyida bo'lib o'tgan ishchi guruhning to'rtinchi yig'ilishi bilan rasmiy qayta tiklangan, shundan so'ng 2022-yil iyun, 2023-yil mart va 2023-yil noyabr oylarida yana uchta uchrashuv bo'lib o'tdi.

2026-yilda JSTga a'zo davlatlar bilan qolgan so'nggi ikki tomonlama muzokara - Tayvan bilan kelishuv yakunlanishi lozim. Shundan so'ng ko'p tomonlama muzokaralar tugatilib, O'zbekistonning JSTga qo'shilishi bo'yicha ishchi guruh hisoboti tayyorlanadi. O'zbekiston Jahon savdo tashkilotining 2026-yilda Kamerunda bo'lib o'tadigan 14 vazirlar konferensiyasiga qadar tashkilotga a'zo bo'lishni reja qilmoqda.

Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish yo'lida katta natijalarga erishdi. 2026-yilda bozorga kirish bo'yicha majburiyatlar yuzasidan ishlar yakuniy bosqichga o'tadi. Tovarlarni va xizmatlarni bo'yicha majburiyatlar jadvalini konsolidatsiya qilish, eksport bojlari, tranzit erkinligi hamda savdoni yengillashtirish masalalari JST qoidalariga muvofiq tarzda kelishib olinishi rejalashtirilgan. O'zbekiston JST doirasidagi tarmoq kelishuvlarida ishtirokini ham faollashtirmoqchi. 2025-yilda ushbu bosqichga tayyorgarlik uchun zarur asos yaratilgan. Xususan, O'zbekiston JSTga a'zo 34 davlatdan

33 tasi bilan ikki tomonlama muzokaralarni yakunlagan, JST bilan bog'liq 30 ta huquqiy hujjat qabul qilingan hamda texnik va institutsional islohotlar amalga oshirilgan. Qonunchilikni muvofiqlashtirish doirasida hukumat JST talablariga mos bo'lgan qo'shimcha 29 ta normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishni rejalashtirmoqda. Ushbu hujjatlar bojxona tartib-taomillari, eksport bojlari, savdoni himoya qilish vositalari, texnik tartibga solish, sanitariya va fitosanitar choralar, shuningdek intellektual mulkni himoya qilish tizimini qamrab oladi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi boshqa davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yanada yaxshilash, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, yangi bozorlarga chiqish orqali tashqi raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun qulay sharoit yaratadi.

O'zbekistonning JSTga a'zolikka kirish jarayoni bir qator xalqaro darajadagi bitimlarda belgilangan majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga olishini taqozo qiladi. JST bitimlari keng qamrovli va murakkab bo'lib, ular keng doirada jahon savdosi masalalarini qamrab oluvchi yuridik hujjatlarga tayanadi. Mazkur bitimlar a'zo mamlakatlarning tashqi savdo salohiyatini oshirishga qaratilgan diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, savdo to'siqlarini bartaraf etish, raqobatbardoshlikni oshirish, yetarli darajada rivojlanmagan davlatlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, savdoni tarif usullari bilan tartibga solish, savdo siyosatining halolligi kabi muhim tamoyillarga asoslanadi. Chunki mazkur tamoyillarga amal qilish orqali JSTga a'zo mamlakatlar o'rtasida tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirish bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etish, mahsulotlarning erkin harakatini ta'minlash, yangi bozorlarga kirib borish orqali raqobat muhitini shakllantirish, rivojlanmagan, o'tish iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlarga har jihatdan qulaylik berishga erishiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlantirish, jahon mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalar

ko'lamini kengaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki, globalashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvni kuchaytirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Mazkur jarayon mahsulotlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchlari bilan jadal almashinuv jarayonlarining rivojlanishiga, ijtimoiy masalalarni hamkorlikda hal etish imkoniyatining yuzaga kelishiga, yangi bozorlardagi raqobatlashtirish jarayoni ta'sirida yanada yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga, iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashuviga, xalqaro savdo munosabatlarida qulay sharoitlar yaratishga hamda yangi texnologiyalarni keng tarqalishi va joriy etilishiga imkon yaratadi.

Ma'lumki, JSTning bosh g'oyasi tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasida erkin savdo siyosatini olib borish uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan. Bundan asosiy maqsad tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi tashqi savdo munosabatlarida adolatli raqobat muhitini shakllantirish hisoblanadi. Shunga ko'ra, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishidagi dastlabki ustuvor vazifa, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan mahsulotlarni xorijdan import qilingan hamda tarif va notarif to'siqlar qo'yilmagan mahsulotlarga nisbatan raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Mahsulotlar ishlab chiqarish va uning savdosidagi raqobatlashuv holati mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy texnologiya hamda innovatsion yondashuvlarni qo'llagan holda yanada rivojlanishga undaydi.

Mamlakatimiz tashqi savdo hamkorlarining aksariyat qismini JSTga a'zo davlatlar tashkil etadi. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi orqali mazkur davlatlar bilan amalga oshiriladigan savdo-iqtisodiy munosabatlarda O'zbekistonning uchinchi davlat sifatidagi ishtiroki natijasida mamlakatimizdan eksport qilinadigan tovarlarga nisbatan yuqori boj stavkalari hamda

notarif tartibga solish usullarining keng joriy etilishining eksport salohiyatiga salbiy ta'siri bartaraf etiladi.

Bu holatni, amaliy raqamlar misolida ko'rsak, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi jahonning 200 yaqin mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasining salmoqli hissasi JST tarkibiga kiruvchi davlatlarga to'g'ri kelmoqda. 2025-yil yakuniga ko'ra mamlakatimiz jami tashqi savdo aylanmasining 50 foizdan ortig'i aynan JST tarkibiga kiruvchi davlatlar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, bunda Xitoy 21,2 foiz, Rossiya 16,0 foiz, Qozog'iston 6,1 foiz, Turkiya 3,7 foiz, Koreya Respublikasi 2,1 foiz, Germaniya 1,8 foiz, Fransiya 1,7 foiz, Afg'oniston 2,1 foiz, Hindiston 1,6 foiz va Qirg'iziston 1,5 foizni tashkil etgan [16]. Shuningdek, so'nggi yillarda mamlakatimiz eksport geografiyasini hamda asosiy hamkor mamlakatlar hisoblangan JST tarkibiga kiruvchi davlatlar bilan tashqi savdo munosabatlari ko'lamini yanada kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar faol tarzda amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, JST tarkibiga kiruvchi davlatlar eksport va import bo'yicha asosiy hamkor davlatlar sifatida muhim o'rin egallaydi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonning JSTga a'zo bolishi xalqaro savdo qoidalarini ishlab chiqish jarayonida to'laqonli ishtirokini ta'minlaydi va bu orqali tashqi savdo munosabatlarida boshqa davlatlar tomonidan qo'llaniladigan diskriminatsion cheklovlarni bartaraf etishga erishiladi.

Yuqoridagilar asosida qayd etish lozimki, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi mamlakatimiz uchun quyidagi bir qator qulaylik va afzalliklarni taqdim etadi:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi "Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

tashkilotga a'zo mamlakatlarning bozorlariga kirish uchun teng huquqli imkoniyat paydo bo'ladi. Ya'ni to'siqsiz o'zaro mahsulot ayirboshlashga va tovar ayirboshlanishi yuksak texnologiyalarning qo'llanilishiga erishiladi.

yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali eksportni salohiyatini oshirishga qulay sharoit yaratiladi.

tashqi savdoda xalqaro standartlar qoidalariga muvofiq milliy standartlarni ishlab chiqish eksportyorlarga chet el bozori talablariga moslashishda yordam beradi.

raqobat muhiti yaxshilanadi va monopoliyaning oldi olinadi.

raqobatlashuv jarayonining kuchayishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy texnologiyalar va investitsiyalar jalb etish faollashadi.

jahon miqyosidagi savdo siyosati bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish huquqi beriladi, shuningdek eksportyorlarning tashqi savdodagi huquqi himoya qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizning jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyalashuvi milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi, shuningdek fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, aholi turmush darajasini oshirishga yordam beradi. O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvni kuchaytirishga qaratilgan siyosati avvalo, mamlakat eksport salohiyatini oshirish orqali milliy iqtisodiyotning barqaror darajada osishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Shu boisdan, O'zbekistonning JSTga a'zo bolishi tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, tashkilotga a'zo mamlakatlar bilan faol hamkorlik aloqalari istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojida alohida ahamiyat kasb etadi.

2. Белова И.Н., Международная торговля: учебно-методический комплекс, 2012. – 158 с.
3. Еременко В.И. Об изменениях в российских законодательных актах, связанных с интеллектуальной собственностью // Адвокат. - 2016. - № 1. - С. 12-19.
4. Ianchovichina E., Martin W. Trade liberalization in China's accession to WTO // *Journal of Economic Integration*. 2001. Vol. 16. No. 4. Pp. 421-445.
5. Ianchovichina E., Martin, W. Economic Impacts of China's Accession to the World Trade Organization // *European Review of Agricultural Economics*. 2008. Vol. 35 (3). Pp. 303-330.
6. Kanungo A.K. China's Process of Accession to WTO: Obstacles and Challenges. F.R.E.I.T. Working paper 510. 2009. URL: <http://www.freit.org/WorkingPapers/Papers/TradePolicyMultilateral.pdf>
7. Логинова А. С., Травина Л. А. Сравнительный анализ практики вступления Китая и России в ВТО // *Актуальные проблемы экономики и права*, 2015. № 3. С. 255-265.
8. Муратова З.М., Юсупов К.Н., Мировая экономика и международные экономические отношения: учебное пособие. - М., 2017. - 288 с.
9. Новиков М.В., Землянская С.В. Система тарифных преференций Таможенного союза // *Вестник Волгоградского университета. Серия 3. Экономика. Экология*. 2013. № 1 (22). С. 223-228.
10. Нормова Ю.В., Государственная финансовая поддержка малого предпринимательства в США и Китае. // Сетевое научно-исследовательское издание «Хроноэкономика». - №5 (13) – Ноябрь, 2018. – С. 42 – 47.
11. Солодков Г.П. Международный бизнес: организация и управление: учебное пособие. - М.: Феникс, 2016.
12. Sachs, Jeffrey D., Woo W.T. China's Economic Growth After WTO Membership // *Journal of Chinese Economics and Business Studies*. 2002. Vol. 1. No. 1. Pp. 1-33.
13. Удовенко С.П., Кузминых Ю.В. Системы тарифных преференций в международной торговле и особенности их предоставления в современных условиях // *Вестник Московского университета МВД России*. 2016. №6.
14. He L., Fan X. Foreign Banks in Post-WTO China An Intermediate Assessment // *China & World Economy*. 2004. Vol. 12. No. 5. Pp. 3-16.
15. Чжан В., Люй К. Анализ влияния вступления Китая в ВТО для экономики страны и мировой экономики // *Проблемы инновационно-инвестиционного развития Дальнего Востока России: мат-лы междунар. науч.-практ. конф. / под ред. А.Е. Зубарева, И.В. Брянцевой*. Хабаровск: Изд-во Тихоокеанского гос. ун-та, 2013. 67 с.
16. https://stat.uz/img/news/press-reiz-uzb_p47043.pdf
17. https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/fact5_e.htm